

Yo'ldashev Abbosbek Mo'minjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

E-mail: yuldashev.lawyer@gmail.com

Annotatsiya: ushbu tezisda islom moliyasining ishlash tartibi, ularning asosiy tamoyillari va prinsiplari haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, mazkur tezisda islom moliyasining an'anaviy moliyadan asosiy farqli jihatlari va uning ustunliklari haqida qisqacha yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: bozor iqtisodiyoti, bozor qonuniyatları, xususiy mulkchilik, moliya, Qur'on, hadis, sunna, ijmo, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik, ishlab chiqarishga asoslangan (production-based) iqtisodiyot, ribo, qimor, spekulyativ operatsiyalar, maysir, zulm, g'arar, harom.

Dolzarbliyi: aholining katta qismi musulmonlardan iborat bo'lганligi sababli yurtimizda islom moliyasiga bo'lган talab kundan-kunga oshib bormoqda. Bu o'z navbatida Islom moliyasiga asoslangan moliyaviy xizmatlarni tartibga solish uchun huquqiy asoslar haqida o'ylashga majbur qiladi.

Maqsad: tadqiqotning maqsadi zamonaviy sharoitlarda islom moliyasi asosida faoliyat yuritishning an'anaviy moliyadan iqtisodiy va huquqiy jihatdan farqli tomonlarini yoritib berish. Shuningdek, islom moliyasining an'anaviy moliyadan ko'ra ham huquqiy jihatdan ham iqtisodiy jihatdan ustunliklarini qisqacha ochib berish.

Islom dini bozor qonuniyatları va bozor iqtisodiyotini nkor qilmaydi. Hatto faqat foyda ko'rish ishtiyoqi ham ma'lum bir miqdorgacha maqbul hisoblanadi. Shu bilan birga xususiy mulkchilikka ham to'liq ravishda e'tiroz bildirilmaydi. Ammo kapitalistik iqtisodiyot va Islom iqtisodiyoti o'rtasidagi asosiy farq

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

dunyoviy kapitalizmning iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun foyda ko'rishga bo'lган ishtiyоq yoki xususiy mulkdorlikka cheklanmagan miqdorda erkinlik berishda namoyon bo'ladi¹.

Islom moliyasining ananaviy moliyadan asosiy farqi ularni tartibga soluvchi normalar hisoblanadi. Ya'ni islom moliyasi o'zgarmas qonuniyatlar asosida boshqariladi. Bu o'zgarmas qonuniyatlar Islom huquqining manbaalari bo'lган Qur'oni Karim, Hadis, Qiyos va Ijmolar hisoblanadi va ular o'zgaruvchalik xususiyatiga ega emas. Ananaviy moliyada esa moliyaviy faoliyat o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega normalar asosida tartibga solinadi. Bularga konstitutsiyalar, kodekslar, qonunlar va qonun osti hujjatlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Ikki moliya tizimidagi bu tafovvut shuni ko'rsatadiki, islom moliyasi moliyaviy xizmatlarni ko'rsatuvchi uchun ham, ushbu xizmatdan foydalanuvchi uchun ham qulay hisoblanadi. Sababi, islom moliyasida taraflar turli xildagi shartnomalarni faoliyat yuritilayotgan mamlakatdagi siyosiy yoki qonunchilikdagi o'zgarishlardan sug'ortalashdan ozod qiladi. Bu esa ortiqcha xarajatlardan ozod qilish bilan birga, keljakdagi faoliyatini rejalashtirish imkonini beradi. Mazkur ustunlik ayniqsa, sobiq sovet ittifoqi mamlakatlari va boshqa o'tish davridagi mamlakatlardagi tadbirkorlik subyektlari uchun qulay hisoblanadi. Chunki, bunday mamlakatlarda islohotlar tez-tez amalga oshiriladi va qonuchilik ham o'zgarishlarga moyil bo'ladi.

Islom moliyasining ananaviy moliyadan yana bir farqi bu – fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalasıdir. Islom moliyasida majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlik belgilangan, lekin majburiyatni bajara olmaganlik uchun javobgarlik belgilanishi nazarda tutilmaydi. Ananaviy moliyada esa, bunday farqlash mavjud emas. Unda majburiyatni bajarmaganlik, lozim darajada bajarmaganlik yoki bajara olmaganlik ahamiyatga ega emas. Har qanday holatda ham javobgarlikka tortiladi va neustoyka to'lashga majbur qilinadi. Ya'ni, Islom moliyasida majburiyatni bajara olmagan taraf qasddan buni amalga oshirsa yoki shartnoma shartlariga amal qilmaganligi sababli majburiyatlarni bajarmasa yoki lozim darajada bajarmasa, javobgarlikka tortiladi.

¹ Islom moliyasiga kirish. Muftiy Muhammad Taqiy Usmoniy: asar/Toshkent: "Azon kitoblari", 2023. 12-bet.
www.tadqiqotlar.uz

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Bu javobgarlik esa, qatiy shartnomada belgilangan jarima ko'rinishida bo'lishi lozim va penya ko'rinishida bo'lishi mumkin emas.

Islom moliyasiga asoslangan moliyaviy xizmatlarning ananaviy moliyaga asoslangan moliyaviy xizmatlardan navbatdagi farqi majburiyatlarni insofsiz ravishda buzgan taraf uchun javobgarlikning muqarrar ekanligida. Chunki, islam moliyasidan foydalanylarda ishtirokchilar tomonidan bir-birining huquqlarini buzganlik uchun javobgarlik muqarrar ekanligiga ishoniladi. Ya'ni, ananaviy moliyani tartibga soluvchi qonunlarda bo'shliqlar bo'lган taqdirda va bir taraf ikkinchi tarafga nisbatan bu bo'shliqdan insofsizlik bilan foydalangan taqdirda, javobgarlikka tortilmaydi. Chunki, aytib o'tilganidek, qonunda bo'shliq borligi sababli bunga javobgarlik nazarda tutilmagan. Islom moliyasida esa aksincha, insof darajasidan chetga chiqib, shartnoma shartlarini buzzdimi, albatta javobgarlikka tortiladi. Bu muslimonlarning bunday bo'shliqlardan insofsizlik bilan foydalilanigan taqdirda ham, Qiyomat kuni bu qilmish uchun Yaratgan oldida javobgarlik muqarrar ekanligiga ishonishlari bilan o'z aksini topadi.

Yuqoridagi huquqiy tafovvtlardan tashqari, Islom moliyasi bir qator moliyaviy-iqtisodiy afzalliklarga ham ega hisoblanadi. Bulardan eng asosiysi ishlab chiqarishga asoslangan (production-based) iqtisodiyot modeli asosida faoliyat yuritishidir. Bu iqtisodiyotning inqirozlarga nisbatan chidamli ekanligiga, jamiyatning barakali bo'lishiga imkoniyat yaratadi. Iqtisodiy til bilan aytganda muomaladagi pullar massasi yalpi ichki mahsulotga nisbatan teng qiymatda bo'ladi. Islom moliyasiga asoslangan jamiyatda har bir summa ortida mahsulot turadi. Ananaviy moliya (kapitalistik) ga asoslangan iqtisodiyotda esa, bunday bo'lmasligi mumkin. Buning asosiy sababi esa, foizga (ribo) asoslangan moliyaviy tizimning faoliyatidir.

Yuqoridagilardan tashqari, islam moliyasi shariat (islom huquqi) tamoyillariga mos keladigan muqobil moliya tizimi bo'lib, u klassik tizimdan beshta asosiy tamoyil bilan farq qiladi:

- foiz stavkasi yo'q (riba);
- qimor va spekulyativ operatsiyalarni moliyalashtirishni taqiqlash (maysir,

zulm);

- tamaki, spirtli ichimliklar, quroq-yarog', o'yin-kulgi, cho'chqa go'shti va boshqalar bilan operatsiyalarni moliyalashtirishni taqiqlash (harom);
- shaffoflikka cheklov yo'q (g'arar);
- foyda va risk barcha ishtirokchilar o'rtasida teng taqsimlanadi.²

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Байдаулет, Е.А.Исломий молия асослари [Матн] / Е.А. Байдаулет. – Тошкент: «О‘zbekiston» НМИУ, 2019. – 432 б
2. Islom moliyasiga kirish. Muftiy Muhammad Taqiy Usmoniy: asar/Toshkent: “Azon kitoblari”, 2023. 12-bet.
3. Toshkent davlat yuridik universiteti bitiruvchisi Abdullayeva Madina Xayriddin qizining “Islom investitsiya kompaniyalari faoliyatini huquqiy tartibga solish masalalari: “Iman Invest” MCHJ misolida” mavzusida yozilgan bitiruv malakaviy ishi.

² Байдаулет, Е.А.Исломий молия асослари [Матн] / Е.А. Байдаулет. – Тошкент: «О‘zbekiston» НМИУ, 2019. – 432 б.